

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**TA'LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TILLARNI  
O'QITISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI  
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami**

**2024-yil 17-may**

**Сборник материалов международной научно-практической  
конференции**

**ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ЯЗЫКОВ  
В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

**17 мая 2024 года**

**Collection of materials of the international scientific and practical conference  
PROBLEMS AND PROSPECTS OF LANGUAGE TEACHING IN THE  
CONTEXT OF EDUCATIONAL TRANSFORMATION**

**May 17, 2024**

**Guliston – 2024**

## KAFANSIZ KO‘MILGANLAR ASARIDA HARBIY SOHAGA TEGISHLI OT SO‘Z TURKUMIGA OID UYADOSH SO‘ZLAR IZOHI

*Pardaboyeva Saida, talaba, Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Shukrullo Yusupovning “Kafansiz ko‘milganlar” asarida uchraydigan harbiy sohaga tegishli ot so‘z turkumiga oid uyadosh so‘zlar izohi tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** “Kafansiz ko‘milganlar”, harbiy soha, uyadosh so‘zlar, terminologik leksika, advokat, avtomat, lager.

Biz bilamizki, har bir tilning lug‘at tarkibi, shuningdek, shu tildagi so‘zlar majmuiga leksika atamasi ishlataladi. Shunga ko‘ra leksika so‘zi adabiy tilning lug‘at tarkibi ma’nosida ham, biror sheva yoki dialektning lug‘at tarkibini ifodalash uchun ham ma’lum bir kasb-hunar kabi sohaga oid lug‘at tarkibi ma’nosida ham (terminologik leksika), hatto ayrim yozuvchi asari yoki asarlarining so‘zları majmuyi ma’nosida ham qo‘llaniladi. Biz harbiy sohadagi atamalarning ayrimlarini Shukrullo Yusupovning “Kafansiz ko‘milganlar” asari misolida ko‘rib o‘tamiz. Shukrullo Yusupov 1921-yil 2-sentabrda Toshkentda tug‘ilgan. 1944-yil Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi Toshkent davlat pedagogika universiteti)ni o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan. Mehnat faoliyatini Toshkent shahridagi o‘rta maktabdan o‘qtuvchilikdan boshlagan, keyinchalik O‘rta Osiyo davlat universitet (hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti) aspiranti, G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti muharriri kabi vazifalarda ishlagan. Qariyb sakson yillik faoliyati davomida “Hayot ilhomlari”, “Umrim boricha”, “Suyanchiq”, “Umrim boricha”, “Javohirlar sandigi” nasriy kitobi, shuningdek, dramaturgiyaga oid “Tabassum o‘g‘rilari”, “Xatarli yo‘l”, “O‘g‘rini qaroqchi urdi” asarlarini yozgan. Adibning qatag‘on davri dahshati haqidagi mashhur “Kafansiz ko‘milganlar”, Ubaydulla Xo‘jaev to‘g‘risidagi “Tirik ruhlar” roman- xronaksi muallifidir. Tarjima sohasida ham yaxshigina faoliyat olib borgan. Uning asarlari arab, rus, turk, ozarbayjon, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz tillarida nashr etilgan. Shukrullo Yusupov 1920-yil 98 yoshida Toshkentda vafot etgan. “O‘zbekiston xalq shoiri”, “Do‘stlik”, “Mehnat shuhrati” va “El-yurt hurmati” kabi ordenlar bilan mukofotlangan. Tarix qancha ko‘p insonlar tomonidan yozilsa, shunchalik ravshan va foydali bo‘ladi. Bu o‘rinda urush davri odamlarining kundaliklari, xotira daftarlari muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yozuvchi xalqi zamonga befarq bo‘lolmaydi. Avtobiografik asarning qiymati ham shunda. Stalin o‘limi oldi va vafotidan keyingi voqealar. Mahbuslarning kun tartibi. Sud tizimi. Bular haqida statistik ma’lumotlar olishingiz mumkin, lekin tarixiy davr ruhiyatini raqamlar to‘plamidan topa olmaysiz. “Kafansiz ko‘milganlar” kabi kitoblar orqali his qilish, tasavvur etish mumkin.

Kafansiz ko‘milganlar. Tan olish kerak, Shukrullo juda jozibali nom topgan asariga. “Tirilish” romanidagi qamoqxona manzaralaridan so‘ng kitobni tushunish qiyinchilik tug‘dirmadi. Darvoqe, kitob tili juda sodda, Shukrullo ortiqcha jilo qo‘shmasdan, kundaligiga qanday erkin yozsa, shunday yozgan. Asarning bir muncha oqsoqligi ham shunda. Uslub aniq emas. Shukrulloni avvalo shoir sifatida

taniymiz. Shoirning shoirligi esa uning nasriy asarlarida ham bilinadi. “Kafansiz ko‘milganlar” da bilinmaydi. Balki shoirning maqsadi shunchaki yillar davomida ichini kemirgan xotiralarini bira to‘la yozish orqali chiqarib yuborish bo‘lib, tuzilishga ko‘p diqqat qaratmagandir.

Hozirgi kunda juda ko‘p sohalar qatori tilshunoslik sohasida ham o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bizga ma’lumki, tilshunoslikning eng ko‘p o‘zgarishga uchraydigan sohasi leksikologiyadir. Leksikologiyani o‘rganishda tilshunos olimlarimiz tomonidan bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Shu nuqtayi nazardan ushbu sohada mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O‘zbekiston tilshunoslari zimmasiga kasbga oid til birliklari o‘rganish va soha atamalarini tizimlashtirish, shuningdek, maxsus lug‘atlarini tuzish bo‘yicha bir qator vazifalar yuklatildi. Biz bilamizki, har bir tilning lug‘at tarkibi, shuningdek, shu tildagi so‘zlar majmuiga leksika atamasi ishlatiladi. Shunga ko‘ra leksika so‘zi adabiy tilning lug‘at tarkibi ma’nosida ham, biror sheva yoki dialektning lug‘at tarkibini ifodalash uchun ham ma’lum bir kasb- hunar kabi sohaga oid lug‘at tarkibi ma’nosida ham (terminologik leksika), hatto ayrim yozuvchi asari yoki asarlarining so‘zları majmuyi ma’nosida ham qo’llaniladi. Biz harbiy sohadagi atamalarning ayrimlarini Shukrullo Yusupovning “Kafansiz ko‘milganlar” asari misolida ko‘rib o‘tamiz. Shukrullo Yusupov 1921-yil 2-sentabrda Toshkentda tug‘ilgan. 1944-yil Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi Toshkent davlat pedagogika universiteti)ni o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan. Mehnat faoliyatini Toshkent shahridagi o‘rtal mактабдан o‘qtuvchilikdan boshlagan, keyinchalik O‘rta Osiyo davlat universitet (hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti) aspiranti, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti muharriri kabi vazifalarda ishlagan. Qariyb sakson yillik faoliyati davomida “Hayot ilhomlari”, “Umrim boricha”, “Suyanchiq”, “Umrim boricha”, “Javohirlar sandigi” nasriy kitobi, shuningdek, dramaturgiyaga oid “Tabassum o‘g‘rilari”, “Xatarli yo‘l”, “O‘g‘rini qaroqchi urdi” asarlarini yozgan. Adibning qatag‘on davri dahshati haqidagi mashhur “Kafansiz ko‘milganlar“, Ubaydulla Xo‘jaev to‘g‘risidagi “Tirik ruhlar” roman-xroniksi muallifidir. Tarjima sohasida ham yaxshigina faoliyat olib borgan. Uning asarlari arab, rus, turk, ozarbayjon, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz tillarida nashr etilgan. Shukrullo Yusupov 1920-yil 98 yoshida Toshkentda vafot etgan. “O‘zbekiston xalq shoiri“, “Do‘stlik”, “Mehnat shuhrati“ va “El-yurt hurmati” kabi ordenlar bilan mukofotlangan. Biz “Kafansiz ko‘milganlar“ asarida uchraydigan harbiy sohaga tegishli ot so‘z turkumiga oid ayrim uyadosh so‘zlarni tahlil qilishga harakat qildik.

Ma’lumki, bir sathga mansub bo‘lgan, qiymat jihatidan bir xil til birliklarining ma’lum umumiyl belgi asosida bir guruhga (uyaga) birlashuviga uyadoshlik munosabati deyiladi. Masalan, asarda uchraydigan “*polkovnik*”, “*kapitan*”, “*prokror*”, “*mirsab*”, “*advokat*”, “*tergovchi*”, “*soqchi*”, “*soldat*” kabi so‘zlar ma’lum bir uyaga mansub shaxs otlaridir. Shaxs oti biror bir insonga shaxsga qaratilgan bo‘ladi. Polkovnik – bir qancha davlatlar kurolli kuchlarida zabitlik unvoni. Polkovnik unvoni rus armiyasida 17-asrdan mavjud bo‘lgan. Kapitan (lot. Capitaneus – lashkarboshi, lot. Caput – bosh so‘zidan) – 1) ko‘pchilik

davlatlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ofitserlik unvoni. Prokor (lotincha: procurare – «g‘amxo‘rlik qilish») – ayrim mamlakatlarda jinoiy ishlarni qo‘zg‘atish, ayblovni yoqlash, sud protsessida davlat manfaatlarini himoya qilish vakolatlari yuklatilgan mas’ul shaxs (organlar tizimi). Mirshab (arab, mir – hukmdor va shab – tun) – O‘rtta Osiyo xonliklarida ma’muriy lavozim; tungi shahar soqchisi va ularning boshlig‘i. Uning zimmasiga shaharda tungi osoyishtalikni ta’minalash mas’uliyati yuklatilgan. O‘rtta Osiyo Rossiya tomonidan istilo qilingach, mirshab asosan, tungi soqchilik hamda tartib va institutizom bajarilishini ta’minalagan va politsiya vazifasini bajargan. Mirsgab Mingboshi va katta oqsoqollar ixtiyorida xizmatda bo‘lgan. Advokat (lot. Advocatus, advocare – yordamga chaqirish) – yuridik yordam ko‘rsatuvchi shaxs. Jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv, tergov harakatlari yuritilganda va sud majlisida, fuqaroviy ishlar sudda, xo‘jalik nizolari xo‘jalik sudlarida yoki ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishlar suda yoxud vakolatli organlar (mansabdor shaxslar) tomonidan ko‘rliganda ishtirok etadi, qonunda belgilangan vakolatga ega bo‘ladi.

Leksemalarning o‘zları bildirayotgan leksik ma’no asosida bir yerga to‘dalanishi, ularning o‘zaro hamda boshqa so‘zlar bilan ma’noviy munosabati masalasi azaldan tilshunos olimlarning diqqat-e‘tiborini o‘ziga tortib kelgan. Masalan, H. Ne‘matov va R. Rasulovlarning “O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari” nomli monografiyasida leksema, nomema, semema, leksik ma’no, leksemalarning mavzu to‘dalari, leksemalarning mazmun guruhlari haqida izchil, ilmiy ta’riflar berilgan; til birliklari o‘rtasidagi o‘xhashlik (paradigmatik), pog‘onali (ierarxik) va ketma-ketlik (sintagmatik) munosabatlarini ochishga harakatlar qilingan. Asarda nafaqat shaxs otlari balki narsa otlari ham shuningdek, o‘rin-joy otlari ham uchraydi. Narsa otlari *miltiq*, *avtomat*, o‘rin-joy otlari *kamera*, *lager*, *turma*, *kaster* va boshqalar. Endi ularning izohiga kelsak “Avtomat” harbiy sohadagi qurollar nomi bo‘lib, avtomatik o‘qotar shaxsiy qo‘l quroli bo‘lib dushmanning jonli kuchini yo‘q qilish uchun mo‘ljallangan. Ilk bor Rossiyada V. G. Fyodorov tomonidan 1916-yil ixtiro qilingan. Miltiq – o‘q otish quroli. Ov va harbiy ishda qo‘llaniladi. Dastlabki M. XII asrda arablarda paydo bo‘lgan. Miltiq yog‘och dastaga mahkamlangan stvol (quvur)dan tuzilgan. O‘rin joy otlaridan Kamera” 1) muayyan maqsadga xizmat qiladigan alohida xona, bino; 2) mashina, asbob ichidagi yopiq bo‘shliq (masalan dvigatelning yonish kamerasi); 3) havo bilan to‘latiladigan rezina qobiq (mina kamerasi). “Lager” esa shaxsiy tarkibga dala sharoitida ta’limot berish maqsadida qism o‘quv markazida o‘tkaziladigan yig‘in. “Turma” qamoqxona ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etuvchi muassasalardan biri. Turmalarda mahkumlar alohida kameralarda saqlanadi. Toshturma ham xuddi shunday huquqbazarlikni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llanadigan jazoni ijro etuvchi joydir. “Kartser” ayrim davlatlarda belgilangan tartibni buzuvchilar uchun turmalarda, armiyada va o‘quv yurtlarida ajratilgan maxsus joy. Katser maxbuslari uchun ayniqsa judayam qattiq rejim o‘rnatalgan.“

Til birliklarining dialektika qonuniyatlarini asosida bir yerga jamlanishi, alohida leksik-semantik guruhlarni tashkil qilishi hamda shu guruh ichidagi boshqa a’zolardan ma’lum bir belgilar asosida farqlanishi sabablari keng ko‘lamda tadqiq

qilindi. Yuqorida keltirgan terminlarning barchasi ham to‘la holda izohlab o‘tilgani yo‘q, chunki terminlarning ba’zilari aniq tushunchani ifodalagani uchun ham aynan izoh talab qilinishiga ehtiyoj sezilgan terminlarni keltirib o‘tishni muvofiq deb topdik.

Umuman olganda, o‘zbek tilshunosligida leksemalarni tushuncha asosida uyalarga bo‘lib o‘rganishda ancha yutuqlarga erishilgan. Tinchlik hukmron surayotgan

mamlakatimizda yosh avlod uchun harbiy terminlar ishtirok etuvchi asarlarni o‘qish jarayonida atamalarning ma’nosini aniq va tushunarli bo‘lishini ta’minalash maqsadida ushbu terminlarning ba’zilarini izohi bilan berilishi maqsadga muvofiq deb topildi. Bundan tashqari ularni tadqiq etishda boshqa til hodisalari bilan taqqoslab o‘rganish hamda uyadosh so‘zlarning mukammal lug‘atini tuzish tilshunoslik sohasining dolzarb masalasidir.

### **Adabiyotlar**

1. O‘zME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
2. Yusupov Sh. Kafansiz ko‘milganlar. – Toshkent, Sharq, 2007.
3. Zokirov Sh. Z. Yuridik atamalar lug‘ati va ularning tarixi.
4. Dolimov Sh. Z. Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent, 2007.
5. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985.

### **ABDULHAMID CHO‘LPONNING KECHA VA KUNDUZ ROMANI HAQIDA BADIY TASVIR VOSITALARI**

*Qahramanova Maftuna Tuyg‘un qizi, talaba, Chirchiq davlat pedagogika  
universiteti*

[alaxonhasanova@gmail.com](mailto:alaxonhasanova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Kecha va kunduz -O‘zbek yozuvchisi Abdulhamid Cho‘lpon tomonidan yozilgan roman. Bu asarga “O‘tkan kunlar asari darajasida“ deb baho berilgan. U o‘zbek adabiyotidagi ilk roman - dilogiya bo‘lib, ikki kitobdan iborat. Birinchi qismi “Kecha” 1933-1934 yillarda Moskvada yozilgan. Dastlabki boblari 1935-yilda Toshkentdagi adabiy jurnalning 1-sonida bosingan, asar 1936-yilda to‘liq holda nashr etilgan. Asardagi voqealar ilk bahorda boshlanib, qish chillasida tugaydi. Cho‘lpon romaniga “Hamal keldi – amal keldi” maqolini epigraf qilib olgan.

Kecha qismi: “Kecha va Kunduz” romanining faqat “Kecha” qismi mavjud. Olimlarning taxminicha, Cho‘lpon «Kunduz» qismini ham rejalashtirgan yoki yozgan bo‘lishi ham mumkin. Dilogiyaning to‘liq emasligi olimlarga Cho‘lponning maqsadi haqida taxmin qilish imkoniyatini beradi.

Ba’zi olimlar Cho‘lpon faqat “Kecha”ni yozgan, “Kunduz” qismi borligi haqidagi mulohazalar sovet kuzatuvchilarini mammun qilish uchun aytilgan deyishadi. Boshqalari esa Cho‘lpon «Kunduz»ni ham yozgan, lekin NKVD uni hibsga olishganda asar musodara qilinib, yo‘q qilingan deb hisoblashadi.